

QASHQADARYO VILOYATI RELYEF SHAKLLARI VA ULARNING TOPONIMIK TAHLILI

Toshmurodova S. E.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Toshmurodov R. E.

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyati hududining asosiy geomorfologik tuzilishi tavsifi, ularning turlari, shakllanish bosqichlarini ta'riflanishi asosida ularning toponimik ma'lumotlari bayon etilgan, nomlanish jarayonlari aniqlangan.

Kalit so`zlar: relyef, geomorfologik tuzilish, oronimlar, nomlanish jarayoni.

RELIEF FORMS OF KASHKADARYA REGION AND THEIR TOPONYMIC ANALYSIS

Abstract. The article describes the main geomorphological structure of the Kashkadarya region, their types, their toponymic information based on the description of the stages of formation, and the processes of naming are defined.

Key words: relief, geomorphological structure, oronyms, naming process.

Qashqadaryo havzasining yer yuzasi turli geologik davrlarda murakkab geologik va geomorfologik jarayonlar natijasida shakllangan, relyef g'arbdan sharqqa tomon ko'tarilib beradi. Qarshi cho'li qiya tekisligining Dengizko'l botig'i bilan tutash joyi dengiz sathidan 280 m baland bo'lsa, sharqda, Hisor tog'larida balandlik 4000 m dan ziyod. Qashqadaryo havzasi relyef xususiyatlari ko'pgina geomorfolog, geolog, tabiiy geograf, tuproqshunoslar tomonidan o'rganilgan. Bu borada O.Y.Poslovskaya (1959), G.F. Tetyuxin (1966), S.Nishonov (1966), V.M.Zubakova (1967), A.M.Rasulov (1976), I.A.Hasanov (1981; 1982), A.Mamatov (1994; 1996) va boshqalarning ilmiy izlanishlarning hudud geomorfologik tuzilishini tadqiq qilishdagi ahamiyati katta. O.Y. Poslovskayaning izlanishlarida birinchi bor relyef sharoitlarini chuqur tahlil qilishga erishildi.

Yer yuzasining hozirgi qiyofasi geologik taraqqiyot bosqichlari bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlikni hamda hozirgi relyef hosil qiluvchi jarayonlar xususiyatlarini hisobga olib, relyefni ma'lum geomorfologik rayonlar asosida tavsiflaymiz.

1. Baland tog'lar. Hisor tizmasining markaziy qismini egallaydi (2800-4000 m va undan yuqori). Tizmaning janubiy yonbag'irlari kuchli parchalangan. Uning Hazrati Sulton (4000 m). Yakkabog' (3700-3800 m) va boshqa tarmoqlari shimoli-sharqqa tomon yo'nalgan.

Viloyat hududining eng baland nuqtasi G'ova cho'qqisi (4145 m) Hazrati Sul-ton tog'ida joylashgan. Bu tog' sharqda Sumsar-Shertog' tog'i (2500 – 2800 m) bilan tutashadi. Hazrati Sul-ton tog'i alp tipli relyef shakllari bilan ajralib turadi. Bu tog' Hisor tizmasining eng shimoliy va yirik tarmog'i bo'lib, Oqsuv va To'polondaryoning suvayrig'ichi hisoblanadi. Uning yonbag'irlarida qor va muzliklar doimiy uchraydi. Hududda kuchli parchalangan relyef shakllari mavjud va ular qirrali qoyalar, cho'qqilar bilan ajralib turadi. Nisbiy balandligi 1200-1500 ga yetadi.

Baland tog' relyefiga xos, o'tkir qirrali qoyalarga boy Chaqchar tog'larning eng baland Xuroson cho'qqisi 3744 m ga ko'tarilgan. Eshakmaydon tog' massivi 2800-2900 m balandlikda bir qator taroshlangan silliq qoyali tog' hisoblanadi. Eshakmaydon shimolda Maydanak va Toytalash tog'lari (2800 m) bilan tutashgan Guldara, Langardaryo va Katta O'radaryo suvayrig'ichi bo'lmish Xontaxti (2938 m) va Kurek (2800-2900 m), Yakkabog' tog'larining g'arbdagi eng chekka baland tarmoqlari hisoblanadi. Bu tog'lar alp orogenezida burmalangan.

2. O'rtacha balandlikdagi tog'lar 1500-2800 m balandlikda joylashgan. Yonbag'irlarning o'rtacha qiyaligi 15-280, ba'zan 30-400 va undan ko'p. Shunga qaramasdan bu mintqa tog'lari ancha parchalangan relyefga ega. Daryo vodiylari kengaygan joylarda chuqur botiqlar kuzatiladi.

Shuningdek chuqur o'yilgan eroziya vodiylari ko'p uchraydi.

3. Past tog'lar mintaqasi o'rtacha balandlikdagi tog'lardan quyida tor zonani egallab, o'rtacha balandlikdagi 800-900 m dan 1500 m gacha boradi. Past tog'lar daryo vodiylari unchalik chuqur emas, ammo kengligi bilan farq qiladi. Mezazoy va kaynazoyning cho'kindi va tog'larning yemirilishidan hosil bo'lgan jinslardan tashkil topgan.

Relyef kuchli o'ydim-chuqurlashgan, tartibsiz tarmoqlangan ter o'zanlar va tog' tizmalarini ajratib turuvchi soy vodiylardan iborat murakkab shaklga ega. Past tog'larda nisbatan ham parchalangan qiyalama kichik tog'lar va tepaliklar bilan murakkablashgan tizmalar ham uchraydi, yonbag'irlarning qiyaligi 20-300, ba'zi joylarda toshloq past tog'lar uchraydi.

4. Tog'oldi to'lqinsimon prolyuvial tekisliklar Hisor tizmasi, Chaqilkalon, Qoratepa va Zarafshon tog'larining etaklarini o'z ichiga oladi. Relyef tepaliklardan, past-balandliklardan va kuchsiz tik o'pirilmalardan iborat. Ular keng soyliklar bilan ajralib turadi. Nisbiy balandligi 10-35 m, ba'zan 50 m ga ham yetadi.

5. Tog'oldi qiya tekisligi geomorfologik jihatdan Qashqadaryoning delta qismi va u bilan bog'liq bo'lgan daryo terrasalarini hamda konusli yoyilmalarning quyi qismlarini o'z ichiga oladi va ular quyidagicha bo'linadi.

5.a. Daryolarning konus yoyilmalari.

G'uzordaryo, Tanhozdaryo, Yakkabog'daryo, Langardaryo quyi oqimini belgilaydi. Daryo yoyilmalarining bosh qismi ancha qiya bo'lib, bo'rtma do'ngliklar

bilan murakkablashgan, daryo vodiylari irmoqlar bilan parchalangan. Kesmalarning chuqurligi joylarda 20 m ga yetadi. Daryo vodiylari yuzasi-keng, unchalik chuqur bo'lmagan (6-10 m) soyliklar bilan o'yilgan, yonbag'irlari juda qiya.

5.b. Qashqadaryoning qadimgi va hozirgi deltasi. U eng quyi gipsometrik balandikni egallaydi. Relyef yassi tekislik, ko'pgina vaqtinchalik va doimiy oqar suv o'zanlari bilan parchalangan. Umuman olganda delta qum va shag'al toshli yuzalar, quruq o'zanlar, qum tepalar, taqirlar va unchalik baland bo'lmagan qoldiq tog'lar xos.

Qashqadaryo havzasi relyefi turlicha tuzilishga ega. Tog'li qismining xushmanzaraligi rekreatsiya turlarini rivojlanishiga ancha qulay. Doimiy qor va muzliklar, trog va daryo, soy vodiylari, tabiat yodgorliklari, karst shakllari (g'orlar), daralar ajoyib ekskursiya obyektlari bo'la oladi.

Baland tog' mintaqasida changida uchish, sayyohlik, sport va sog'lomlashtirish lagerlari, dam oluvchilar uchun ekskursiyalar uyushtirish imkoniyatlari mavjud. O'rtacha baland va past tog'lar relyefining xushmanzaraligi hamda boshqa tabiiy xususiyatlari rekreatsiyani rivojlantirishda qo'l keladi. Tog'lardagi Amir Temur, Ho'kiz-Kamar, Ko'l, Kiyik-Kamar, Kaptarxona g'orlari sayohatchilarni qiziqtiruvchi tabiat yodgorliklaridandir. Taxtaqoracha dovonidan shimoli-g'arbga joylashgan, shamolning faoliyati natijasida hosil bo'lgan. "Dinazavr", "Jodugar", "Do'stlar" va boshqa qoyalar tabiat yodgorliklari bo'lib sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. Katta O'radaryo va Kichik O'radaryo havzalarining kuestali relyefga egaligi relyefning xilma-xil bo'lishiga olib kelgan, binobarin, sayyohlikda foydalanish samarasi yuqori bo'ladi.

Murakkab geologik jarayonlarni boshidan kechirgan Beshnov massivi, Zarafshon va Hisor tog'lariga qadimgi eralarga sayohat sifatida sayohlik yo'nalishlari uyushtirish mumkin. Ayniqsa, rekreatsiya maqsadlarida SHertog' va Sumsar tog'laridan foydalanish imkoniyatlari katta. Qazilma tosh qotgan o'simliklarning qoldiqlari Qiziltosh va Tutak ota qishloqlari orasidagi so'qmoqda topilgan. Bu hududga sayohat uyushtirish "Dinazavrlar so'qmog'i" va "Yura davrining o'simliklari"ning qoldiqlari bilan tanishish imkonini beradi. Qo'xbuloq, Qiziltom, Boshdaryo, Teres, Mudin, Suvtushar sharsharalari ham kishiga zavq bag'ishlaydi. Binobarin, viloyat relyef va geologik tuzilishining betakror xususiyatlari jihatidan katta rekreatsiya imkoniyatlariga boy. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyat hududida ko'plab relyef shakllari mavjud bo'lib, ular xilma-xil oronimlarni vujudga keltirgan hamda joy nomi sifatida hudud tabiati bilan uyg'unlashgan holda tarkib topgan. Viloyat oronimlari orasida, shubhasiz, relyefning ma'lum bir xususiyatini anglatuvchi nomlar juda ko'p. Shu bilan birgalikda tabiatning boshqa komponentlari nomi bilan birikkan holda ham ko'plab oronimlar hosil bo'lgan. Viloyat oronimlarining aksariyat qismi o'zining tabiiy geografik xususiyatiga bog'liq bo'lgan nomlardir.

Viloyati hududining geologik tuzilishi, ma'lum bir turdagi minerallar va tog' jinslarining mavjudligini anglatuvchi nomlarga Davtosh (qish., Chiroqchi t.), Tobatosh (bal., Dehqonobod, Qamashi t.), Sangqaloq (adir, Dehqonobod t.), Sangishkon (qish., G'uzor t.), Baqirchi (qish., Qarshi t.), Oqtosh, Xarsangsoy (bal., soy, Qamashi t.), Oltintepa, Ko'mirchi (qish., Qamashi t.), Kon (qish., ko'l, Qamashi t.), Ahalli, Mumlaychi (adir, Kitob t.) kabi nomlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Odatda tog'li hududlar oronimlarida tog'ning yuqori qismini, baland qismini anglatuvchi nomlar, tog'ning, vodiyning oralig'ini anglatuvchi toponimlar va shuningdek tog'ning etagi, quyisini bildiruvchi toponimlar shakllanadi. Ularning har birida relyef shakli birlamchi xususiyat sifatida o'zining geografik o'rnini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshboyev B.T. Qashqadaryo viloyati oronimlarining tabiiy geografik xususiyatlari. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 53-jild. Toshkent, 2018. 169-172 b.
2. Eshboyev B.T. Classification issues of Kashkadarya region toponyms. International journal of research and development (IJRD). Vol. 5, Issue 8. SJIF Impact Factor: 7.001. August 2020, P. 255-260.
3. Когай Н.А. Туранская физико – географическая провинция // Научные труды ТашГУ, вып. 353, Т. - 1969 .
4. Журакулов Х.Ж. История развития рельефа и природы Юго – Запада Узбекистана в новейшем этапе // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 28- jild, Т.- 2007.
5. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – Qarshi, 1994.